

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

URALOVA MUXABBAT SANJAR QIZI

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI
O‘QITUVCHILARINING IJODIY-METODIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**
**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Uralova Muxabbat Sanjar qizi

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-
metodik kompetentligini rivojlantirish 3

Уралова Мухаббат Санжаровна

Развитие творчески-методической компетентности будущих учителей
начальной образование на основе интегративного подхода 21

Uralova Mukhabat Sanjar kizi

Development of creative-methodical competence of future elementary school
teachers based on an integrative approach 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

URALOVA MUXABBAT SANJAR QIZI

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI
O‘QITUVCHILARINING IJODIY-METODIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8805 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdazimov Azizjon Abdusabirovich**
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Bulatov Saidaxbor Sobitovich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Haydarov Dilshod Shogdarovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» ____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.) Tel:(99871) 276-79-11; faks(99871) 276-80-86; web-site: www.tdpu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot - resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel:(99871) 276-79-11; faks(99871) 276-80-86

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G. Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dosent

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning kreativ texnologiyalari ta‘lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyada o‘tkazilgan Xalqaro ta‘lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan «Incheon declaration»da «Ta‘lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish»¹, integrativ yondashuv asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion yo‘nalishlari, o‘qitishning variativ shakllari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar bajarilmoqda.

Jahon oliy ta‘lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy-metodik tayyorgarligi sifatini ta‘minlash, ta‘lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, didaktik tayyorgarlikni takomillashtirish, didaktik sifatlarni va kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga kasbga tayyorlashni xalqaro malaka talablari asosida olib borish, ta‘lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish, bilim ko‘nikmalarini rivojlanish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, modulli ta‘limni yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining professionaligini aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarga e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish, boshlang‘ich sinflarda ta‘lim jarayonini axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda tashkil etish, kompetent mutaxassis va ijodiy kompetensiyani rivojlantirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy-meyoriy asoslari yaratilmoqda. “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish²” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy-metodik faoliyatini pedagogik texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz

¹ Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015. Incheon, Republic of Korea). – 48 p

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - T., 2017. 6-son.

ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishda integrativ yondashuv asosida ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish B.S.Abdullayeva, Sh.S.Abduraimov, B.R.Adizov, X.B.Norbo'tayev, R.A.Mavlonova, N.H.Rahmanqulova, B.B.Ma'murov, A.K.Raximov, G.N.Ibragimova, X.A.To'raqulov, G.Ergasheva, R.Ibragimov, N.M.Saloxitdinovalarning ishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar Hamdo'stligidan integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish, zamonaviy maktablarda hamda oliy ta'limda integrativ yondashuvning ahamiyati, kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodik jixatlari A.N.Nadyurmagomedov, A.P.Belyayeva, B.A.Akxibinskiy, M.N.Berulava, T.G.Braje, V.S.Bezrukova, A.Y.Danilyuk, E.Y.Suxarevskaya, E.N.Puzankova, Y.M.Kolyagin, Y.Y.Kustov, V.N.Vedenskiy, S.A.Demchenko, I.A.Zimnyaya, O.I.Panfilova, O.N.Yariginlar tadqiqotlarida tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan M.Fullan, S.Hennessy, K.Ruthven, S.Brindley, T.Lubart, T.Afalla, L.Fabelico, P.Mishra, M.J.Koehlerlarning ishlarida integrativ ta'lim texnologiyalarini qo'llashning afzalliklarini va imkoniyatlarini aniqlashgan.

Tadqiqotning maqsadi integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik modelini takomillashtirish;

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Termiz davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Buxoro davlat pedagogika institutlarining boshlang'ich

ta'lim yo'nalishi talabalaridan jami 675 nafar respondent ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; sotsiometrik metodlar (suhbat, anketa, so'rovnoma, intervyu, test); modellashtirish, pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari o'zini-o'zi rivojlantirish va faollashtirishga qaratilgan ijodkorlik va autodidaktik boshqaruv harakatlari bilan monologik va dialogik nutq proporsional bog'liqligini ta'minlash hamda intellekt, qobiliyat, ichki motivatsiyani bosqichma-bosqich o'stirishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modeli kreativ qobiliyatlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan intensivlik va faollik ko'rsatkichlarini davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasiga ratsional uyg'unligini ta'minlash hamda bilish obyektlarini shaxsga yo'naltirishga barqaror ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish metodikasi qadriyatli-motivatsion, izlanuvchan-axborotli, refleksiv, protsessual-faoliyatli, didaktik-texnologik, kognitiv-baholash komponentlarining integrativ yaxlitligini shakllantirish hamda ta'lim subyektlari munosabatida pedagogik hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga erishish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish samaradorligi didaktik topshiriqlar, muammoli vazifalar, nostandart masalalarni bosqichma-bosqich kiritish hamda adabiy talaffuz malakasini dinamik ravishda o'stirib borishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish mazmuni majmuasi yaratilgan;

“Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi” nomli o'quv qo'llanma nashr qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'i asosida berilgan №438132 raqamli guvohnoma).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni o'rganishda nazariy, metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlarga hamda ijodiy-metodik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha olib borilgan respublikamiz va xorijlik olimlarning tadqiqot ishi natijalarga asoslanganligi tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarini qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-

statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy, psixologik-pedagogik xususiyatlari va metodik yondashuvlarning nazariy tahlil etilganligi hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy–metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish ta'minotidan foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari o'zini-o'zi rivojlantirish va faollashtirishga qaratilgan ijodkorlik va autodidaktik boshqaruv harakatlari bilan monologik va dialogik nutq proporsional bog'liqligini ta'minlash hamda intellekt, qobiliyat, ichki motivatsiyani bosqichma-bosqich o'stirishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7564/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash imkoni yaratilgan.

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish modeli kreativ qobiliyatlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan intensivlik va faollik ko'rsatkichlarini davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasiga ratsional uyg'unligini ta'minlash hamda bilish obyektlarini shaxsga yo'naltirishga barqaror ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7564/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik modelini takomillashtirish samaradorligi oshgan;

integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish metodikasi qadriyatli-motivatsion, izlanuvchan-axborotli, refleksiv, protsessual-faoliyatli, didaktik-texnologik, kognitiv-baholash komponentlarining integrativ yaxlitligini shakllantirish hamda ta'lim subyektlari munosabatida pedagogik hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga erishish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7564/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy-metodik kompetentlikni

rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni boyitilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish samaradorligi didaktik topshiriqlar, muammoli vazifalar, nostandart masalalarni bosqichma-bosqich kiritish hamda adabiy talaffuz malakasini dinamik ravishda o'stirib borishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirish bo'yicha tavsiyalar "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7564/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini aniqlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xorijiy, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 11 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta xorijiy jurnallarda, 1 ta respublika jurnallarida chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning hajmi 131 sahifadan iborat bo'lib, kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi asoslangan.

Dissertatsiyaning "**Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri har bir o'quvchining salohiyatini, ichki imkoniyatlarini, ijodiy qobiliyatini tarbiyalash, kreativ potensialini yuzaga chiqarish orqali ularning mustaqil bilim topish va o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'la borishlari uchun ijodiy muhit yaratish bilan bog'liq adabiyotlar ilmiy tahlil etilgan. O'quvchi shaxs sifatida shakllana borib, o'z oldiga maqsad qo'yish, qo'yilgan maqsadga erishish uchun vazifalarni rejalashtirish, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar bilan bog'liq o'quv-ta'limiy muammolarni mustaqil tarzda hal eta olishdek fazilatlarini o'zlashtirishiga erishishi yuqorida keltirilgan asosiy maqsadlarga uyg'un vazifalardir. Umumiy holda aytganda, o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy ishlarning asl mohiyatini yaxlit ko'rinishda quyidagicha ifodalash mumkin: "Maktab o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini mustaqil tashkil eta olishlari va bu borada tajriba orttira borishlari, shaxsiy mas'uliyatni his etishlari, ya'ni eng muhim kompetensiyalarga ega bo'lishlari uchun dastlabki poydevor bo'lib xizmat qilmog'i kerak".

Pedagogika va o'qitish metodikasiga oid adabiyotlarda "kompetentlilik" va "kompetensiya" tushunchalari boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatiga joriy etgan

o'zgarishlar hamda yangilanishlarning muhim mezonni sifatida qaraladi va tatbiq etilgan modernizatsiya jarayonlarning darajasini quyidagicha belgilaydi.

Aslida, "kompetentlilik" so'zi lotin tilidagi "compete" so'zidan olingan va "to'g'ri kelmoq", "mos tushmoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Kompetentlilik shaxsning ma'lum faoliyat sohasida o'rnatilgan mezonlar, qo'yilgan talablar va belgilangan standartlarga muvofiqligini; faoliyat doirasidagi muayyan vazifani zarur darajada hal etishda tajriba, bilim, mahorat, ko'nikma va boshqa kasbiy hamda shaxsiy sifatlaridan samarali foydalana olishini; yuzaga kelgan pedagogik vaziyatda tashabbusni qo'lga olib, o'z maqsadiga erishish singari qobiliyatlarga ega bo'lishini anglatadi.

I.A.Zimnyaya ta'rifiga ko'ra, "Kompetentlilik – ma'lum bir predmetli sohada aniq bir harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan maxsus qobiliyat majmuasidir".

V.V.Anisimov fikricha, "metodik kompetentlilik asosiga qurilgan metodik faoliyatni olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi shunchaki kasbiy vazifalarning oddiy ijrochisi bo'lib qolmasdan, ma'lum darajada "uslubchi", dars mashg'ulotlarini tashkil etishda tashabbuskor, o'z atrofida o'quv-tadqiqotchilik muhiti yarata oluvchi mutaxassis bo'lishi lozim.

Kasbiy faoliyatga tayyorlik boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiyligi bilan bir qatorda uning ijodiy-metodik kompetentlilikka ega bo'lishini talab qiladi. Aytish kerakki, ijodiy-metodik kompetentlilik alohida kategoriya sifatida o'rganilmaydi va ijodiylik hamda metodik kompetentlilikning "qorishmasi" sifatida talqin etiladi. Metodik kompetentlilik – o'qituvchining metodik ishni bajarish davomida amalga namoyon qiladigan kasbiy va shaxsiy sifatleri majmuasi bo'lib, bu sifatlar uning o'qitishda yangi metod, metodika, shakl va vositalarini axtarishi, ularni mavjud ta'limiy muhit sharoitlariga muvofiqlashtirish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirishni o'z ichiga oladigan davomli jarayonda namoyon bo'ladi.

Metodik kompetentlilik o'qituvchining tahliliy, loyihalash, konstruksiyalash, meyoriy, tadqiqotchilik kabi beshta asosiy guruhga mansub funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarishida namoyon bo'ladi: tahliliy funksiyalar mavjud metodik ishlanmalar, ommalashgan metodikalarni (yoki metod yoki vositalarni), jamoadagi yoki hududdagi mahoratli o'qituvchilarning tajribalarini tahliliy o'rganib, o'z faoliyatiga muvofiqlashtirishdan iboratdir; loyihalash funksiyasi o'qitishning mazmun-mundarijasini istiqbolli rejalashtirish, ta'lim oluvchilarni shaxs sifatida rivojlantirish bo'yicha o'z loyihasini ishlab chiqish demakdir; konstruktiv funksiyalar o'tkaziladigan dars mashg'ulotini rejalashtirish, tashkil etish (ya'ni o'quv mavzusiga oid qo'shimcha materiallar yig'ish, eng muhim axborotlarni saralab olish, boshqa fanlar yoki mavzular bilan integratsiyani amalga oshirish va shu kabilar), o'quv materialini taqdim etishning mazkur dars uchun samarali usul va vositalarini hamda ta'lim oluvchilar bilan samarali kommunikativ muloqotga kirishning metodlarini tanlash kabi xatti-harakatlar majmuasini o'z ichiga oladi; meyoriy funktsiya orqali ta'lim standartlari, o'quv dasturlarining talablarini bajarish, mazkur o'quv muassasasida joriy etilgan meyoriy o'rnatmalarga javob berishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuasi amalga oshiriladi; tadqiqotchilik funksiyasi – metodik faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan yangi metod, usul va vositalarni doimiy ravishda

axtarish hamda ularni izchillik bilan amaliyotga joriy etib borish demakdir.

Integrativ yondashuv “ilmiy bilimlarni umumlashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy didaktiv vosita” ekanligi va uning fanlararo aloqadorliklarga asoslanishi haqida qarashni biz A.Braun tadqiqotlarida ko‘ramiz. R.A.Mavlonova, R.H.Rahmonqulovalarning fikrlariga ko‘ra, “integrativ yondashuv – tadqiqotning pozitsiyasi bo‘lib, unga muvofiq, ta‘lim pedagogik integratsiya (fanlararo, fan ichidagi, shaxslararo, shaxs ichidagi integratsiyalar) jarayonlari va natijalari sifatida qaraladi”. Integrativ yondashuv - bu o‘qituvchining turli fanlar, metodikalar va o‘quv jarayonlarini birlashtirib, ta‘lim oluvchilarning keng qamrovli va muvozanatli rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan pedagogik usuldir.

Zamonaviy pedagogikada integrativ yondashuvni joriy etish orqali bajariladigan funksiyalarning o‘ziga xos aniq ro‘yxati keltirib o‘tilmaydi, shu tufayli ham biz bir qadar umumiy, invariantli xususiyatga ega bo‘lgan va boshqa ko‘plab funksiyalarning mohiyatini ochib bera oladigan funksiyalarga to‘xtalib o‘tamiz. Integrativ yondashuvni joriy etishda muhim asos va tub negiz deb qaraladigan pedagogik integratsiya o‘quv jarayonida metodologik, rivojlantiruvchi va texnologik funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun zamin yaratadi.

Integrativ yondashuvni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish amaliyotiga joriy etishning mohiyati haqida mufassal tasavvur hosil qilish uchun biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy va metodik kompetentligini alohida integrativ obyekt sifatida olib, ularning mavjud xossalari asosida hosil bo‘ladigan yangi obyektning integrativ xossalarini jadval ko‘rinishida taqdim etamiz (1-jadval).

Ijodiy-metodik kompetentlikka xos bo‘lgan yana bir xususiyat shuki, uning shakllanishi uzluksiz va davomli, dialektik va dinamik xususiyatlarga ega jarayon bo‘lib, “ijodiylik – ijodiy qobiliyat – kompetensiyalar shakllanishi – kompetentlik – ijodiy-metodik kompetentlik” ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ketma-ketlikka amal qilgan holda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvni bosqichli joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bizningcha, bu bosqichlar quyidagi ko‘rinishda bo‘lmog‘i lozim: integratsiya jarayonining komponentlari, tuzilmasi, qo‘llanish usullari haqida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida yetarlicha bilim va malakalarni shakllantirish: mazkur yo‘nalish pedagogik OTMdagi tahsilning birinchi kursida amalga oshirilishi zarur; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘z muassasalaridagi ta‘lim muhitidan kelib chiqqan holda integratsiya jarayonlarining asosiy yo‘nalishlarini tanlashlari uchun variativ sharoitlar yaratish: bu vazifa tahsilning ikkinchi kursida bajarilishi maqsadga muvofiqdir; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga integrativ yondashuvda ko‘zda tutilgan funksiyalarning mohiyati va maqsad-vazifalari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlariga erishish tahsilning uchinchi kursida ko‘zda tutiladi; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bevosita o‘qitish amaliyotida integrativ yondashuvdan foydalanishlariga erishish pedagogika yo‘nalishlaridagi bakalavriat ta‘limining to‘rtinchi bosqichida ko‘zda tutilgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ijodiy-metodik kompetentlilikning ijodiylik va metodik kompetentlilik integratsiyasi natijasida hosil bo'ladigan integrativ xossalari

Ijodiy kompetentlilikning asosiy xossalari	Metodik kompetentlilikning asosiy xossalari	Ijodiy-metodik kompetentlilikning integrativ xossalari
Muayyan vaqt kesimi oralig'ida namoyon bo'lishi.	Yuksak bilim, mahorat va malakani o'z ichiga oluvchi intellektuallik hamda keng dunyoqarash.	Chegaralangan vaqt ichida mavzuga oid maksimal bilim, axborotlarni original tarzda yetkazish mahorati.
Ijodiy kompetentlilikning mahsulining maxsus yo'naltirilganlikka ega ekanligi va muayyan auditoriyaga mo'ljallanishi	Ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari, belgilangan meyoriy o'rnatmalar asosida shaxsni rivojlantirishni takomillashtirishga qaratilgan istiqbolli loyihalashtirilganlik.	Ijodiy kashfiyolar, topilmalar, usul va metodikalarni aynan o'z auditoriyaga ijodiy muvofiqlashtira olish.
Ijodiy natijalarning rejalashtirilishi.	O'zi, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini, hamkasblar, tajribali o'qituvchilar yuksak kompetentligining asosiy omillarini muntazam kuzatib borishdan iborat refleksif-tahliliylik.	Ilg'or tajribalarni ijodiy yondashuv asosida o'rganib, o'z faoliyatiga joriy etish va o'quvchilarning faoliyatini baholashda foydalaniladigan mezonlarni takomillashtirish.
Faoliyatning har doim hamkorlikda amalga oshirilishi.	O'qitishning yangi shakl, metodikasi, metod va vositalarni axtarish hamda o'z pedagogik faoliyatiga joriy etishda namoyon bo'ladigan izlanuvchanlik.	O'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, o'qitishning metod, shakl va vositalarini to'g'ri tanlash.
Tahlil, mulohaza, sintez, umumlashirish kabi o'quv harakatlarining ustivorligi.	Didaktik topshiriqlar, muammoli vazifalar, nostandart masalalar ishlab chiqishdan iborat tadqiqotchilik.	O'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ijodiy-kreativlik.
Yechimning originalligi va noandazaviyligi.	O'z-o'zini rivojlantirish uchun o'z faniga aloqador yangiliklar hamda pedagogik innovatsiyalarni doimiy joriy etib borish kabi harakatlarni o'z ichiga olgan kreativlik.	Ilm-fan, ta'lim, uslubiyot sohasida har doim xabardorlik va ulardan o'quv jarayonida mavzularga uyg'un holda samarali foydalanish.
Faoliyat natijasini tashxislay olishlik.	Ilmiy anjumanlar, seminarlar, ko'rgazmalar, tanlovlarda o'z ta'lim oluvchilari bilan hamkorlikda ishtirok etishdan iborat faollik.	O'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil topshiriq berib, ularning faolligini rivojlantirish.
Qiziqish va yuksak darajada motivatsiyaning mavjudligi.	Ta'lim oluvchilarning ijodiy-kreativ yuzaga chiqarishga qaratilgan mahsuldor kommunikativlik.	O'quvchilarning kreativ potensialini yuzaga chiqarish usullarini mustaqil axtarish
Mustaqil bilim olish va tadqiqotchilik ko'nikmalari.	Ilmiy va sohaga oid adabiyotlardan doimiy foydalanish.	O'quv fanlarning aksiologik va integrativ jihatlarini topa olish.
Bilishga oid muammolarni hal etish usullarini mustaqil axtarish, topish va buning natijasida ijodiy emotsiyalar olish.	O'quv jarayonida erkinlik, insonparvarlik, o'zaro hamkorlik muhitini barqarorlashtirish.	O'quvchilarni toliqtirmaslik uchun usullar, metodlar va vositalarning integrativ o'zgarib turishi.

Ijodiy-metodik kompetentlikning didaktik imkoniyatlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim jarayonida yuqori sifatli, ijodiy va samarali metodlar bilan ishlashga tayyorlash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu imkoniyatlar o'qituvchining pedagogik faoliyatini ijodiy tarzda tashkil qilish, o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash va ularni zamonaviy ta'lim metodlari orqali o'qitish uchun muhimdir. Quyidagi didaktik imkoniyatlarni keltirish mumkin. Ijodiy-metodik kompetentlikning didaktik imkoniyatlari: o'qitish metodlarini diversifikatsiya qilish-o'qituvchining metodik kompetentligi yuqori bo'lgan ta'lim jarayonida turli metodlar va usullarni qo'llash imkoniyatlarini taqdim etadi; ijodiy fikrlashni rivojlantirish- o'qituvchilarning ijodiy-metodik kompetentligi ularning o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi; pedagogik texnologiyalarni qo'llash-pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash bo'lajak o'qituvchiga o'quv jarayonini yangi, innovatsion yondashuvlar orqali tashkil etishga imkon beradi; differensial o'qitish-o'qituvchilar o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ta'lim jarayonini tashkil etishlari mumkin; kreativ o'qitish metodlarini qo'llash- o'qituvchining ijodiy-metodik kompetentligi o'qitishda yangicha yondashuvlarni yaratish, o'quvchilarni ilgari o'ylamagan tarzda fikrlashga undash imkoniyatini beradi.

Ta'kidlash lozimki, har bir bosqich ijodiy-metodik kompetentlikning integrativ fenomen sifatidagi alohida komponentini shakllantirishni nazarda tutmaydi, har bir alohida bosqichda barcha komponentlarning o'zaro uyg'un, aloqadorlikda va muhimi, majmuaviy tarzda rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida integrativ yondashuvning negiziy asosini tashkil etuvchi pedagogik integratsiyani amalga oshirishda ustivorlik qiladigan asosiy tamoyillar va ularning alohida dars jarayonidagi ahamiyati bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqilgan.

O'qitish mazmun-mundarijasining integratsiyasini amalga oshirish integrativ yondashuvning eng samarali, har qanday vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Fanlarning o'zaro integratsiyasi: fanlarning alohida qismlarini (masalan, mavzular, ahamiyatli faktlar, qonunlar); yaxlit bir fanni (integratsiya qilinadigan fan nuqtai nazaridan olam manzaralarini ifodalovchi nazariyalarni); fanni hosil qiluvchi motivatsiyaviy, mundarijaviy va faoliyatli komponentlarni; ratsional va emotsional mazmunini uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Integratsiyani turli darajada joriy etishning tizimlilik tamoyilida boshqa o'quv fanidan integratsiya etiladigan mavzu (tushuncha, fakt, ma'lumot, bo'lim va hokazolar) muayyan fandagi o'xshash tushunchalar bilan uyg'unlashib, o'quv maqsadining samarali hal etishini ta'minlaydigan tizim hosil qilishi va bu tizimning xossalari uni hosil qilgan komponentlar (ya'ni integratsiya etilgan obyekt va o'rganilayotgan fandagi o'xshash obyekt) xossalari yig'indisidan mazmunan ahamiyatliroq bo'lishidir.

Aytish kerakki, tizimlilik tamoyinining mazmun-mohiyatini tadqiq etishda ayrim korreksiyalar kiritildi. Xususan, hozirgi davrda integratsiyani joriy etishning tizimlilik tamoyili deyilganda nafaqat integrativ tizim (tartibli integrativ majmua) hosil

qilish, balki integratsiyalashgan tushunchalar va mavzular orqali olam manzarasining ilmiy qiyofasini majmuaviy tarzda anglash ham tushuniladi.

Integratsiyani joriy etishning uzviylik tamoyili o'rganiladigan har bir tushuncha, ma'lumot, bilim, malaka va o'zlashtiriladigan ko'nikma hamda mahorat ilgarigi turdoshlarining davomi va yangi turdoshlari uchun asos vazifasini o'tagani holda, o'quv jarayonining mavzulararo aloqadorligini ta'minlanishini taqozo etadi. Mazkur tamoyilda integrativ obyektlarni bog'lovchi sifatida, ko'pincha, fanga oid muayyan qonun, tushuncha, ta'rif olinadi. Ushbu tamoyilni joriy etish orqali alohida tushuncha, mavzu, bo'lim, pirovardida, o'quv kursining zarur darajada o'zlashtirilishiga erishiladi.

Integratsiyani joriy etishning izchillik tamoyili fanlararo (mavzulararo, bo'limlararo) integratsiyani amalga oshirishda integrativ elementlar o'rtasida mantiqiy va mundarijaviy ketma-ketlikka amal qilinishini taqozo etadi. Bu bilan avval o'rganilgan tushunchalarning (mavzularning) mukammallashtirib borilishi, ular negizida yangi tushunchalarning (mavzularning) to'liq va mufassal o'zlashtirilishiga erishish nazarda tutiladi.

Integratsiyani joriy etishning uzluksizlik tamoyiliga amal qilish orqali integrativ obyektlarning (yoki elementlarning) butun ta'lim jarayoni davomida rivojlantirib borishni ta'minlash ko'zda tutiladi. Shu barobarida, integrativ tizimning mazmunan takomillashib, mufassallashtirib borishi, ayni vaqtda, hajman soddalashib, ixchamlashib borishiga erishish mumkin.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish vazifasini samarali amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik shartlar bajarilishi lozim, deb hisoblanadi: integratsiyani joriy etish tamoyillari bilan integrativ yondashuvni joriy etish tamoyillariga amal qilinish natijasida shakllangan talablar o'rtasida muvofiqlikning ta'minlanishi; integrativ yondashuvning asosini tashkil etuvchi integratsiya obyektini va integratsiyaning joriy etilish darajasini belgilashda ijodiy-metodik kompetentlikning aynan qaysi komponenti va qanday xossalarni rivojlantirish bilan maqsadning aniq belgilab olinishi; ijodiy-metodik kompetentlikning o'zi mohiyatan integrativ (qorishma) faoliyat ekanligidan kelib chiqib, har bir fanning (bo'lim, mavzu, tushuncha yoki konseptning) integrativ obyekt sifatidagi ijodiy va metodik jihatlarini yuzaga chiqarishni nazarda tutuvchi asosiy vazifalarning aniqlashtirib olinishi; ta'lim oluvchilarning (bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining) ijodiy-metodik potensialini yuzaga chiqarishga hamda davomli tarbiyalashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar aniqlab olinishi va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif etiladigan metodikalarning joriy etilishi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining joriy etilish natijadorligini baholab borishga qaratilgan mexanizmlarning muntazam faollashtirilganligi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish – uzluksiz, davomli jarayon bo'lib, OTMdagi tahsili davomida uning ijodiy-kreativ potensialini yuzaga chiqarish va metodik mahoratini takomillashtirish orqali bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish mumkin.

O'qituvchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining (ya'ni boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining) ijodiy-metodik kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishda ta'lim jarayonini shunday tashkil etishi lozimki, unda: har bir mavzu bo'yicha rivojlantiruvchi, nostandart, ijodiylikni talab qiluvchi savollar

tayyorlay olishi hamda talabning metodik qobiliyati ijodiy tarzda namoyon bo'lishini ta'minlovchi muammoli va noandazaviy vaziyatlar yarata olishi lozim, boshqacha aytganda, o'qituvchi ijodiy-metodik jihatdan yuksak darajada tayyorlikka ega bo'lishi talab etiladi; ma'lumki, mavzu doirasida har bir tushuncha, o'quv kursi doirasidagi har bir mavzu o'z integratorlariga ega va bu integratorlarni aniqlash, mavzuning (umumiy tarzda esa o'quv materialining) ijodiy, metodik va integrativ mazmunini yuzaga chiqarishga qaratilgan ijodiy-kommunikativ muhit yaratish integrativ yondashuvni joriy etishda muhim vazifa sanaladi; OTMdagi ta'limning barcha bosqichlari va pedagogik amaliyotlar ijodiy-metodik kompetentlilikning shakllanishi uchun yetarli jarayon hisoblangani holda mazkur kompetentlilikni davomli rivojlantirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi, ya'ni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi butun umr davomida, o'zining istiqboldagi kasbiy faoliyati davomida o'z ijodiy-metodik kompetentliliğini rivojlantirib borishi, binobarin, talaba o'z ustida ishlash, o'z kasbiy mahoratini oshirib borish, kuzatish, yangiliklarni o'z vaqtida joriy eta olish tajribalarini o'zlashtirishiga erishish integrativ yondashuv asosida hal etiladigan navbatdagi vazifa hisoblanadi; ma'lumki, ijodiy-metodik kompetentlilikning birlamchi negizini ijodiy qobiliyat tashkil etadi. Ijodiylik talab darajasida bo'lmas ekan, ijodiy-metodik kompetentlilikni to'laqonli shakllantirish imkonsizdir. Biroq yuqorida ko'rib o'tganimizdek, talabning o'quv jarayonida alohida shaxs sifatida o'z ijodiy potentsiali, kreativligi va boshqa sifatlarini namoyon etishi uchun bir qator salbiy omillar to'sqinlik qiladi. Bunday omillarni bartaraf etish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, zero, bu vazifaning bajarilishi davri o'z ibtidosi va yakuniga, bajarilishi ketma-ketligini ega bo'lishini ta'minlash integrativ yondashuv joriy etilishida inobatga olinishi zarur.

